Динамика изменения таких показателей как MIP-1 α , MIP-2 β и PDGF, свидетельствующие об активности клеточных факторов в начале регенерации раны была не однозначной. В отличие от больных контрольной группы изменения среди больных основной группы были не выраженными, что видимо было связано с направленностью вектора разработанного нами лечебно-диагностического алгоритма в направлении профилактики генерализации инфекции.

Между тем, процесс, связанный с изменением концентрации MIP-1 α и MIP-2 β в крови было идентичным, в частности концентрация MIP-1 α в крови у больных основной группы увеличивалось с 9,2 \pm 1,4 пг/мл на 1-сутки лечения до 14,1 \pm 2,6 пг/мл на 28-сутки лечения ($p < 0,05$). При этом уровень концентрации данного показателя соответствовал референсным значениям. На этом фоне нами было выявлено обратная динамика MIP-2 β в крови с 22,7 \pm 3,8 пг/мл на 1-сутки лечения до 16 \pm 1,8 пг/мл на 28-сутки лечения ($p < 0,05$).

Тромбоцитарный фактор роста увеличивался как среди больных контрольной группы, так и основной. При этом следует отметить, что в контрольной группе больных повышение PDGF в крови было менее интенсивным (с 16,1 \pm 2,7 пг/мл до 19,8 \pm 3,1 пг/мл; $p < 0,05$), тогда как среди больных основной группы повышение уровня PDGF в крови было более интенсивным (с 8,9 \pm 1,3 пг/мл до 22,1 \pm 4,5 пг/мл; $p < 0,05$). Все это привело к достижению у больных основной группы референсных значений на 28-сутки лечения ($p < 0,05$), что свидетельствует о повышении интенсивности регенеративных процессов в ране.

При оценке непосредственных результатов лечения учитывались местные и общие изменения течения ДНЗР. Среди 85 больных основной группы такие изменения были не однозначными. В этой связи полученные данные были оценены в зависимости от прогностической вероятности развития генерализации инфекции, которая подразделялась нами, как указывалось выше, на отсутствующая, незначительная и выраженная. При этом описание признаков патологического процесса было основано

на усовершенствованной нами балльной градации, описанная во второй главе диссертационной работы.

У большинства больных (54,1%) основной группы активный воспалительный процесс в ДНЗР либо отсутствовал (17 больных) либо сопровождался без образования некроза тканей (29 больных), что, по-видимому, было связано с повышением навыков самостоятельной смены повязки. У остальных 39 больных в ДНЗР присутствовало некробиотический процесс в ране. Среди них преимущественно были отмечены смешанный тип некроза (24,7%) и наличие сухого некроза (12,9%).

Среди больных с отсутствием вероятности генерализации инфекции преимущественно были зарегистрированы случаи отсутствия воспалительного процесса в ране (62,5%), среди больных незначительной вероятностью генерализации инфекции приоритетными были случаи наличия воспалительного процесса в ране, но без некробиоза (72,4%), а среди больных в выраженной вероятностью развития генерализации инфекции преимущественно были случаи со смешанным некрозом в ДНЗР.

По типу ткани в ложе ДНЗР преимущество было (34,1%) за больными с наличием хрупкой и бледной грануляционной ткани. Таковых больных среди с отсутствием вероятности генерализации инфекции оказались 37,5%, среди больных с незначительной вероятностью – 58,6% и с высокой вероятностью – 9,4%. На втором месте (21,2%) оказались больные с частотой наличия плотной и красной грануляционной ткани. При этом среди больных с отсутствием вероятности генерализации инфекции они оказались в преимущественном количестве (54,2%), среди больных с незначительной вероятностью - в 13,8% случаев, и среди больных в выраженной вероятностью – в 21,2% случаев.

Характер раневого экссудата ДНЗР был разнообразным. Преимущественно (43 больных; 50,6%) он носил гнойный (27,1%) или серозно-гнойный (23,5%) характер. Среди остальных 49,4% случаев были констатированы геморрагический (17 больных; 20%), серозно-геморрагический (14 больных; 16,5%) и серозный (11 больных; 12,9%) характер.

Среди больных с низкой прогностической вероятностью генерализации инфекции нами диагностированы наличие только серозного (45,8%) и серозно-геморрагического (54,2%) характера раневого экссудата. У больных с незначительной прогностической вероятностью генерализации инфекции преимущественно было отмечено наличие геморрагического (55,2%) и серозно-геморрагического (37,9%) характера раневого экссудата. В то же время среди больных в выраженной прогностической вероятностью генерализации инфекции в ДНЗР преобладали гнойный (68,8%) и серозно-гнойный характер раневого экссудата.

Цвет экссудата ДНЗР у больных основной группы преимущественно был красного (28,2%) или желтого (21,2%) цвета. Такой характер экссудата был характерен для больных с отсутствием прогностической вероятности генерализации инфекции 58,3% и для больных с незначительной прогностической вероятностью 62%. Среди больных с выраженной прогностической вероятностью генерализации инфекции такой характер экссудата был отмечен лишь у 31,3% больных. Следует отметить, что для больных данной подгруппы ДНЗР имела характерный экссудат зеленого или грязно-серого цвета (50%).

Характер консистенции раневого экссудата был распределен равномерно среди больных с ДНЗР основной группы. Преимущественная концентрация показателей приходилось на кровянистый и густой водянистый характер консистенции раневого экссудата (54,1%). Такой характер консистенции экссудата приходился на больных с низкой прогностической вероятностью генерализации инфекции.

Почти в одинаковой пропорции были водянистый (18,8%) и густой характер консистенции раневого экссудата (17,6%). При этом среди больных с выраженной прогностической вероятностью генерализации инфекции густая консистенция раневого экссудата (65,7%).

Микробная обсемененность ДНЗР у больных основной группы была представлена смешанной флорой во всех проведенных исследованиях. Преобладающим был *Staphylococcus aureus*, который высеивался почти у половины больных (49,4%). Относительно меньше по частоте регистрировалась наличие в ДНЗР *Pseudomonas aeruginosa*, который был отмечен нами в 42,8% случаев. В организации

комбинированного симбиоза микробов ДНЗР у больных основной группы большую роль играли так же *Staphylococcus haemolyticus* (32,9%) и *Acinetobakter* (29,7%).

Среди других возбудителей идентифицировались *Proteus vulgaris*, *Proteus mirabilis*, *St. Epidermidis*, *Candida albicans* и *E.coli*. Средний уровень количества микробной флоры ДНЗР у больных основной группы колебалось в пределах от 10^7 до 10^9 КОЕ/см² раневой поверхности, что значительно превышало допустимый предел ($\times 10^2$ КОЕ/см²) микробной обсемененности раны.

Сравнительный характер изменения местных клинических проявлений ДНЗР показал степень нарастания выраженности изменения после применения разработанного нами лечебно-диагностического алгоритма. Так, площадь раневой поверхности у больных контрольной группы уменьшалась в динамике от 1,1 до 1,2 раза, тогда как в основной группе больных уже через 1 неделю проведенного лечения уменьшение площади раны было в 1,2 раза, а в последующие сроки лечения данная тенденция лишь нарастала. В отличие от контрольной группы больных, прирост разницы на 14-сутки лечения составил 1,6 раз ($p < 0,05$), а на 28-сутки лечения – в 3,1 раза ($p < 0,05$). Исходная глубина поражения ДНЗР была почти идентичной между больными как контрольной, так и основной групп. Через 7-суток проведенного лечения данный показатель уменьшался, причем среди больных контрольной группы в 1,1 раза, а среди больных основной группы в 1,3 раза ($p < 0,05$). В последующие сроки проведенного лечения динамика изменения глубины раны у больных контрольной группы была стабильной, все так же в 1,1 раза, однако среди больных основной группы, благодаря применению разработанного нами лечебно-диагностического алгоритма, разница в заполнении раны тканями лишь нарастала и составляла уже в 1,4 раза ($p < 0,05$).

Подобный характер изменений можно отметить и по отношению к сокращению масштабов протяженности инфильтрата вокруг раны. У больных контрольной группы она не имела столь выраженных изменений, как среди больных основной группы. Так, через 7 суток проведенных исследований протяженность инфильтрата среди больных контрольной группы уменьшалась в 1,2 раза, а в последующие сроки исследования, то есть на 14 и 28-сутки, в 1,3 и в 1,2 раза соответственно. Однако у больных основной группы, в результате применения разработанного нами лечебно-диагностического алгоритма, интенсивность уменьшения зоны инфильтрата вокруг раны была

существенной и выражалась в 1,6 ($p<0,05$), в 1,8 ($p<0,05$) и в 4,2 раза ($p<0,05$) на 7, 14 и 28-сутки проведенного лечения.

Следует отметить, что сравнительный характер интенсивности происходящих изменений был отмечен нами между больными контрольной и основной групп так же разрезе вероятности генерализации инфекции.

В целом, полное самостоятельное заживление раны среди больных с ДНЗР было достигнуто в 17,2% случаев (29 больных). Среди них в 3,1 раза превалировали больные основной группы, что подтверждает эффективность разработанного нами лечебно-диагностического алгоритма.

Применение дифференцированных подходов в лечении ран в зависимости от прогностической вероятности генерализации инфекции позволило в 2,3 раза больше достичь случаев уменьшения размеров раны. В целом такой результат лечения был отмечен нами в 35,5% (60 больных) случаев.

Несмотря на применение комплекса лечебных мероприятий, у 80 больных (47,3%) достичь желаемых результатов заживления раны нам не удалось. У таких больных было достигнуто очищение раны, уменьшения глубины и изменения характера некробиотических процессов в тканях. Однако применение разработанного нами лечебно-диагностического алгоритма среди больных основной группы позволило уменьшить количество таких случаев в 2,8 раза.

У 77 (45,6%) больных раны были закрыты методом кожной пластики, которая оказалась весьма эффективной среди больных основной группы. Применение разработанного нами дифференцированного подхода при лечении ДНЗР применение кожной пластики было выполнено в 2,1 раз чаще среди больных основной группы.

Применение разработанных нами методов прогнозирования и профилактики генерализации инфекции у больных с ДНЗР позволило сократить частоту развития данного грозного осложнения в 2,6 раза. Это в свою очередь отразилось на сокращении сроков нахождения больных в клинике в 1,6 раза, а длительность амбулаторного лечения – в 2,3 раза. Все этом может свидетельствовать об эффективности разработанных нами методов прогнозирования и профилактики инфекции у больных с длительно незаживающими ранами.

ВЫВОДЫ:

1. Применение дифференцированных подходов в лечении ран в зависимости от прогностической вероятности генерализации инфекции позволило в 2,3 раза больше достичь случаев уменьшения размеров раны. В целом такой результат лечения был отмечен нами в 35,5% (60 больных) случаев.

2. Применение разработанных нами методов прогнозирования и профилактики генерализации инфекции у больных с ДНЗР позволило сократить частоту развития данного грозного осложнения в 2,6 раза. Это в свою очередь отразилось на сокращении сроков нахождения больных в клинике в 1,6 раза, а длительность амбулаторного лечения – в 2,3 раза.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Трофические язвы нижних конечностей — обзор проблемы. / В.Н. Оболенский, Г.В. Родоман, В.Г. Никитин, М.А. Карев. // РМЖ. 2019;17:25(364):1647-1662.
2. Vasculitic and autoimmune wounds. / V.K. Shanmugam, D. Angra, H. Rahimi, S. McNish. // J. Vasc. Surg. Venous Lymphat Disord. 2017;5(2):280-292.
3. Тамразова О.Б. Длительно не заживающие язвы нижних конечностей: патогенетическое обоснование тактики выбора терапии: Дис... д-ра мед. наук. М. 2013.
4. Мельник В.Р. Разработка технологий и компонентов препарата Нейпоген // Фармакология и фарминдустрия.-2012;3(1):218-225.
5. Подгорный П.Р., Сибирякова Р.Н., Мартыненко В.В. Гемопоэтический эффект Нейпогена у больных с заболеваниями крови // Онкогематология.-2010;2:34-39.
6. Смородина Г.В. Насколько требуется применения Нейпоген в условиях усиленной антибиотикотерапии сепсиса? (обзор литературы) // Вестник фармакологии.-2013;3:23-29.
7. Хамдамов Б.З. Метод лазерной фотодинамической терапии в лечении раневой инфекции при синдроме диабетической стопы. //Биология ва тиббиёт муаммолари. Самарканд, 2020. №1 (116) – С.142-148. (14.00.00; №19).

8. Храмин В.Н. Современные аспекты местного лечения хронических ран нижних конечностей у больных сахарным диабетом. // Научно- практический медицинский журнал ЭНЦ РАМН.2015;4:26-30.
9. Stone R.C. A bioengineered living cell construct activates an acute wound healing response in venous leg ulcers. // Sci. Transl. Med.2017;9(371):eaaf8611.
10. Burden of venous leg ulcers in the United States. / J.B. Rice, U. Desai, A.K. Cummings, et al. // J. Med. Econ. 2014;17:347-356.
- 11.Khamdamova M.T., Akramova D. E. Genetic aspects of genital prolapse in women of reproductive age // New day in medicine. Bukhara, 2023. - No. 5 (55). - P. 638-643.
- 12.Khamdamova M.T., Teshayev Sh.Zh., Hikmatova M.F. Morphological changes of the thymus and spleen in renal failure in rats and correction with pomegranate seed oil // New day in medicine. Bukhara, 2024. - N. 3(65). - P. 167-187.
- 13.Khamdamova M. T. The state of local immunity in background diseases of the cervix // Eurasian journal of medical and natural sciences Innovative Academy Research Support Center. Volume 3 Issue 1, January 2023 ISSN 2181-287X R.171-175.
- 14.Khamdamova M.T., Khasanova M.T. Various mechanisms of pathogenesis of endometrial hyperplasia in postmenopausal women (literature review) // New day in medicine. Bukhara. 2023. - No. 8 (58). - P. 103-107.
15. Khamdamova M.T. Reproductive Health of Women Using Copper-Containing Intrauterine Contraception // Eurasian Medical Research Periodical Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .www.geniusjournals.org P. 39-45.
16. Khamdamov I.B. Advantages Of Laparoscopic Hernioplasty in Obesity Women of Fertile Age // Eurasian Medical Research Periodical Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .www.geniusjournals.org P. 33-38.
- 17.Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The state of nitric oxide in blood serum in patients with cutaneous leishmaniasis // New day in medicine. Bukhara, 2023. - No. 5 (55). - P. 638-643.
18. Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The value of ceruloplasmin and copper in blood serum in women wearing copper-containing intrauterine device // New day in medicine. Bukhara, 2023. - No. 6 (56). - P. 2-7.

19. Khamdamova M. T. Bleeding when wearing intrauterine contraceptives and their relationship with the nitric oxide system // American journal of pediatric medicine and health sciences Volume 01, Issue 07, 2023 ISSN (E): P. 2993-2149. R.58-62
20. Khamdamova M.T. Reproductive Health of Women Using Copper-Containing Intrauterine Contraception // Eurasian Medical Research Periodical Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .www.geniusjournals.org P. 39-45.
21. Khamdamov I.B. Advantages Of Laparoscopic Hernioplasty in Obesity Women of Fertile Age // Eurasian Medical Research Periodical Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .www.geniusjournals.org P. 33-38.
22. Mesenchymal stem cells for chronic wound healing: Current status of preclinical and clinical studies. / Y.Z. Huang, M. Gou, L.C. Da, et al. // Tissue Eng. Part B. Rev.2020;26:555–570.
23. Goldberg S.R., Diegelmann R.F. What makes wounds chronic. // Surg. Clin. New Am.2020;100:681–693.
24. Khamdamov B.Z. Indicators of immunocytocine status in purulent-necrotic lesions of the lower extremities in patients with diabetes mellitus. // American Journal of Medicine and Medical Sciences, 2020, 10 (7). -P 473-478. DOI: 10.5923/j.ajmm.20201007.08
25. Khamdamov B.Z., Sayfiddinov S.I., Khamdamov I.B., Teshayev U.Sh. The role and place laser photodynamic therapy in prevention postoperative complications at treatment of diabetic foot syndrome. // 5th International scientific conference “European Applied Sciences: challenges and solutions” December 10th 2015. Stuttgart, Germany. -P. 27-31.
26. Khamdamov B.Z., Khamdamov I.B., Teshayev U.SH. Laser photodynamic therapy in prevention postoperative complication at treatment of diabetic foot syndrome. // 3-й Международный конгресс Раны и раневые инфекции. Сборник тезисов. Москва, 2016. – С. 325-327.
27. Matrix metalloproteinases (MMPs) and diabetic foot: Pathophysiological findings and recent developments in their inhibitors of natural as well as synthetic origin. In The Eye and Foot in Diabetes. / K. Kaur, A. Singh, S. Attri, et al. // Intech. Open: London, UK, 2020.
28. Validation of matrix metalloproteinase-9 (MMP-9) as a novel target for the treatment of diabetic foot ulcers in humans and discovery of a potent and selective small-molecule MMP-9 inhibitor that accelerates healing. / T.T. Nguyen, D. Ding, W.R. Wolter, et al. // J. Med. Chem. 2018;61:8825–8837.

29. High glucose activates ERK1/2 to stabilize AP1 and increase MMP9 expression in diabetic foot ulcers. / J. Lang, C. Yang, L. Liu, et al. // *Exp. Cell Res.* 2021;112550.
30. Efficacy of Neupogen in the complex of cytotoxic therapy / R. Ching, F. Bore, Y. Yangu, et al. // *Bulletin of Oncohematology.*-2021; 8(11):1428-1433.

OMMAVIY MAKTABDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH USULLARI

Saidakbarova Gulnora Botirovna

saidguli8880@gmail.com

Maxsus pedagogika (Surdopedagogika) yonalishi 1 - bosqich magistranti,

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ommaviy maktablarda inklyuziv ta'limni tashkil etish usullari ko'rib chiqiladi. Inklyuziv ta'lim jarayonining nazariy va amaliy asoslari, maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish usullari va pedagoglarning roliga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur maqola orqali inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan metodikalar, turli xil texnologiyalar hamda ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida barcha o'quvchilarning huquqlarini ta'minlash va ularning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan strategiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, Ommaviy maktab, Maxsus ta'limga ehtiyoj, Pedagogik yondashuvlar, Innovatsion metodikalar, Ijtimoiy-psixologik muhit, Ta'limda tenglik*

Kirish qismi: Bugungi globallashuv davrida jamiyat oldida turli xil ijtimoiy qatlamlarga mansub bo'lgan insonlarning huquq va imkoniyatlarini ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu jumladan, ta'lim sohasida inklyuzivlik tamoyillarini joriy etish butun dunyoda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta'lim nafaqat o'quv jarayonida nogironligi bor yoki maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish, balki ularni jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida qabul qilishga zamin yaratishdir.

O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, davlat dasturlari va qonun hujjatlari qabul qilinmoqda. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash" dasturlari inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini belgilab bermoqda. Ammo ushbu tizimni ommaviy maktablarda samarali tashkil etish uchun nazariy va amaliy yechimlarni ishlab chiqish,

pedagoglarning malakasini oshirish hamda ta'lim jarayonida maxsus texnologiyalarni qo'llash zarur. Ushbu maqolada ommaviy maktablarda inklyuziv ta'limni tashkil etish usullari, bu jarayonning qiyinchiliklari va ularga yechim bo'luvchi metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Asosiy qism: Inklyuziv ta'lim — bu ta'lim tizimining barcha qatnashchilariga, ularning imkoniyatlaridan qat'i nazar, teng sharoit yaratishga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu ta'lim modeli har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda, ularga mos sharoitlarni taklif etadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim bolalarda nafaqat akademik, balki ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi. Shuningdek, bu jarayon boshqa o'quvchilarda ham bag'rikenglik va jamiyatdagi xilma-xillikka nisbatan hurmatni shakllantiradi.

Ommaviy maktablarda inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun quyidagi shart-sharoitlar muhimdir. Maktab binolari va infratuzilmasi nogironligi bor bolalarga moslashtirilishi lozim. Bu, masalan, panduslar, liftlar va maxsus sinfxonalarning mavjudligini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Pedagoglar maxsus ta'lim usullaridan xabardor bo'lishi va maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash uchun malaka oshirishi kerak. Har bir bolaning ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim dasturini ishlab chiqish muhim. Ota-onalar va jamiyatda inklyuziv ta'limning ahamiyatini tushuntirish hamda bu jarayonga ularni faol jalb qilish talab etiladi.

Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli tashkil qilish uchun quyidagi metodikalardan foydalanish tavsiya etiladi. Guruhda ishlash bolalarning ijtimoiylashuviga yordam beradi va o'quvchilarning bir-biriga yordam berishiga zamin yaratadi. Har bir o'quvchining qobiliyat va ehtiyojlariga mos individual yondashuvni qo'llash kerak. Elektron o'quv materiallari va maxsus dasturiy vositalardan foydalanish bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Nogironligi bo'lgan bolalar bilan boshqa bolalarni birgalikda ta'lim jarayoniga jalb qilish, ular o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytiradi.

Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglarning roli juda muhimdir. Pedagoglar nafaqat dars o'tuvchi, balki psixolog va ko'makchi sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu sababli, ularga maxsus treninglar tashkil etish, psixologik

tayyorgarlikni oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o'rgatish zarur. Inklyuziv ta'limni amalga oshirish jarayonida quyidagi qiyinchiliklar uchraydi:

- Pedagogik kadrlarning yetishmasligi yoki ularning maxsus malakasizligi.
- Jamiyatda inklyuziv ta'limga bo'lgan qarshilik yoki noto'g'ri tushunchalar.
- Moliyaviy va moddiy-texnik resurslarning cheklanganligi.

Mazkur qiyinchiliklarni hal qilish uchun davlat siyosatini takomillashtirish, mahalliy va xalqaro grantlarni jalb qilish hamda jamiyatda targ'ibot-tushuntirish ishlarini olib borish tavsiya etiladi.

Yuqoridagi yondashuvlar orqali inklyuziv ta'limni ommaviy maktablarda samarali tashkil etish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki jamiyatda bag'rikenglik va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tahlil qismi: Inklyuziv ta'limni ommaviy maktablarda joriy etish jarayonini tahlil qilishda bir nechta muhim jihatlar ko'zga tashlanadi.

Ko'plab ommaviy maktablar inklyuziv ta'limni joriy qilish uchun zarur bo'lgan jismoniy va texnologik imkoniyatlarga ega emas. Nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus sinfxonalar, o'quv uskunalari yoki o'quv materiallari yetarli darajada ta'minlanmagan. Bu holat infratuzilmani modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish, jumladan, maxsus dasturiy ta'minotlar va o'quv vositalarini xarid qilish inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ko'pgina ommaviy maktab o'qituvchilari maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda yetarli malakaga ega emas. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun pedagoglarning metodik va psixologik tayyorgarligi muhimdir. Bu esa doimiy ravishda treninglar o'tkazish, malaka oshirish kurslarini tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Maktab muhitining o'quvchilar uchun inklyuziv bo'lishi katta ahamiyatga ega. Ammo ko'p hollarda o'quvchilar o'rtasidagi tenglik va bag'rikenglikni ta'minlashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Jamiyatning inklyuziv ta'limga tayyor emasligi yoki noto'g'ri tushunchalarga ega

bo'lishi ham ushbu jarayonga to'sqinlik qilmoqda. Bu borada ota-onalar va mahalla faollari bilan hamkorlikda ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish muhimdir.

Moliyaviy resurslarning yetishmasligi, ta'lim tizimida davlat tomonidan ajratilgan mablag'larning yetarli emasligi inklyuziv ta'limning keng ko'lamda amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qonun va qarorlarning ijrosi ko'p hollarda sust amalga oshirilmoqda.

Ba'zi maktablarda inklyuziv ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanilmaydi. Masalan, differensial yondashuv yoki kolaborativ o'qitish metodlari keng joriy etilmagan. Bu esa o'quv jarayonini barcha uchun teng samaradorlik bilan tashkil etishga to'sqinlik qiladi. Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limni ommaviy maktablarda to'liq amalga oshirish uchun infratuzilmani yangilash, pedagogik kadrlarni tayyorlash, ijtimoiy ongini oshirish va moliyaviy ko'makni kuchaytirish zarur.

Inklyuziv ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi barcha o'quvchilarga teng imkoniyat yaratish va ta'lim jarayonini barcha uchun samarali tashkil etishdir. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ommaviy maktablarda inklyuziv ta'limni tashkil etishda muhim omillar quyidagilar hisoblanadi. Ta'lim muassasalari nogironligi bo'lgan o'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Maxsus texnologik vositalarni joriy etish jarayonni ancha yengillashtiradi. Maxsus ta'lim yondashuvlari bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirish mumkin. O'quvchilar, ota-onalar va jamiyat a'zolarida bag'rikenglik va tenglik g'oyalarini targ'ib qilish, inklyuzivlikka ijobiy munosabatni shakllantirish muhimdir. Davlat va mahalliy hukumatlar tomonidan moliyaviy yordamni ko'paytirish, inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan qonun va dasturlarni kuchaytirish zarur. O'quv jarayonini barcha uchun qiziqarli va samarali qilish maqsadida yangi metodikalarni qo'llash talab etiladi.

Xulosa qismi: Ommaviy maktablarda inklyuziv ta'limni tashkil etish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun teng sharoitlarni yaratish va ta'lim jarayonida ularning faol ishtirokini ta'minlashdan iboratdir. Inklyuziv ta'lim nafaqat o'quvchilarning bilim olish huquqlarini ro'yobga chiqaradi, balki jamiyatda bag'rikenglik va ijtimoiy uyg'unlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ko'plab ommaviy maktablar jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun moslashtirilmagan. Bu holatni bartaraf etish uchun maktab binolarini modernizatsiya qilish, panduslar, liftlar, maxsus sinfxonalar va texnik vositalar bilan ta'minlash zarur.

Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli tashkil etishda o'qituvchilarning maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu esa pedagoglarni maxsus o'quv kurslari va treninglarda ishtirokini ta'minlashni talab qiladi.

Differensial va individual yondashuvlarni qo'llash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish inklyuziv ta'lim samaradorligini oshiradi. Guruhiy ishlar, loyiha asosidagi o'qitish va boshqa ilg'or metodlarni keng joriy etish kerak.

Ota-onalar va jamiyatni inklyuziv ta'limning ahamiyati haqida xabardor qilish, bolalar va kattalar o'rtasida bag'rikenglikni targ'ib qilish, nogironligi bo'lgan bolalarga ijobiy munosabat shakllantirish zarur.

Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xalqaro grantlar va xususiy homiylik loyihalarini jalb qilish orqali maktablarni zamonaviy vositalar bilan ta'minlash masalalariga e'tibor qaratilishi kerak. Xulosa qilib aytganda, ommaviy maktablarda inklyuziv ta'limni tashkil etish davlat, jamiyat va ta'lim muassasalarining birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi. Bu nafaqat maxsus ehtiyojli o'quvchilarning huquqlarini himoya qiladi, balki barcha bolalar uchun ijtimoiylashuv, tenglik va farovonlik tamoyillarini rivojlantiradi. Inklyuziv ta'limning to'liq joriy etilishi natijasida jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat va ijtimoiy barqarorlik yanada mustahkamlanadi. Shu boisdan, inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish strategik ahamiyatga ega bo'lib, kelajak avlodning ijtimoiy farovonligi uchun zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Qodirova F.U va boshqalar. Surdopedagogika /Darlik. – Chirchiq: “Osiyo tur”, 2024.- 272 b.
2. Maxsus pedagogika (Darslik). —T.: «Fan va texnologiya», 2014,368 bet.
3. Rahmanova V.S. Maxsus pedagogika (mutaxassislikka kirish). T.: G'.G'ulom. 2005 y.

4. Aziza Murtazoyevna Nematova. ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARGA PEDAGOGIK PSIXOLOGIK YONDASHUV. (2025). *Yangi O'zbekistonda Tabiiy Va Ijtimoiy-Gumanitar Fanlar Respublika Ilmiy Amaliy Konferensiyasi*, 3(1), 22-25.

<https://universalpublishings.com/index.php/gumanitar/article/view/9299>

5. M.R.Abdullayeva and others. Social Psychological Features of the Process of Professional Stress in Pedagogical Activity // *Journal Power System Technology* ISSN: 1000- 3673, V 48, Issue 4. 2024/12. Pages 3325-3334

6. Ботирова, Дилафрўз Бозоровна. "ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ИЖТИМОИЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ." *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 31.2 (2024): 3-8.

7. Abdullaeva, Shoirra, et al. "Enlightenment Awakening as a Guarantee of a Stable Society." *SPAST Abstracts* 2.02 (2023).

8. Ботирова Д. Б. Олий таълим муассасалари талабаларида ижтимоий фаолликни ривожлантиришнинг психологик хусусиятлари // *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*. – 2022. – №. Special Issue 1. – С. 21-25.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Ermuxamedov Abdullajon Akbarjon o'g'li
Ta'lim muassasalarining boshqaruvi magistranti
abdullaermuxamedov1@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot oliy ta'limda kredit-modul tizimida o'qitish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash masalalariga bag'ishlangan. Kredit-modul tizimi ta'lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilish va mustaqil ta'limga e'tibor qaratish imkonini beradi. Tadqiqot davomida ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati, mavjud texnologik yondashuvlar va ularning natijadorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, raqamli platformalar va interfaol usullar talabalarning o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, raqamli platformalar, interfaol usullar.

Kirish

Kredit-modul tizimi oliy ta'limda 1970-yillardan boshlab G'arb mamlakatlarida joriy etilgan bo'lib, talabalarning bilim olish jarayonini individuallashtirish va o'zlashtirish jarayonini samarali nazorat qilishga yo'naltirilgan. 1990-yillardan boshlab kredit-modul tizimi dunyoning turli mamlakatlarida, jumladan, Sharqiy Yevropa va Osiyoda ham keng qo'llanila boshladi. Ushbu tizimning asosiy maqsadi talabalarni o'quv jarayonida mustaqil bo'lishga rag'batlantirish, ularning bilim olish sur'atini oshirish va o'quv dasturlarini moslashuvchan qilishdir.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida kredit-modul tizimi 2019-yildan boshlab bosqichma-bosqich joriy qilina boshladi. Bu jarayon Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida o'z aksini topgan. 2020-yilda bir qator oliy ta'lim muassasalari tajriba tariqasida kredit-modul tizimiga

o'tdi. Ushbu tizim orqali ta'lim jarayonini individuallashtirish va talabalarning bilim olishni mustaqil tashkil qilishlariga imkon yaratildi.

Kredit-modul tizimi ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishini talab qiladi. Bugungi kunda raqamli platformalar (Moodle, Google Classroom), interfaol texnologiyalar (virtual laboratoriyalar, videodarslar) va blended learning (aralash ta'lim) usullaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan, individual va samarali qilish imkonini beradi. Shu sababli, ushbu maqola kredit-modul tizimida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati va ularning samaradorlikka ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan.


Kredit-modul tizimida zamonaviy texnologiyalarning roli

Kredit-modul tizimi talabalarga bilim olishda mustaqillik va erkinlik beradi, shu bilan birga ta'lim jarayonining sifatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi. Quyidagi texnologiyalar samaradorlikni oshirishda muhim hisoblanadi:

- **Raqamli platformalar:** Moodle, Google Classroom, Blackboard kabi platformalar o'qituvchi va talabalar o'rtasida interaktiv aloqani ta'minlaydi.
- **Interfaol texnologiyalar:** Videodarslar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar orqali o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilish mumkin.
- **Blended learning (aralash ta'lim):** An'anaviy va onlayn ta'limni birlashtirgan yondashuv.

*Diagramma 1:
Kredit-modul tizimida zamonaviy texnologiyalarning o'rn*

Kredit-modul tizimida zamonaviy texnologiyalarning o'rni



Zamonaviy texnologiyalarning afzalliklari

Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

Interaktivlik

- Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida real vaqt rejimida muloqot.
- Virtual sinflar, forumlar, va chatlar orqali muhokamalarni osonlashtiradi.

Moslashuvchanlik

- Talabalar xohlagan joydan va xohlagan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi.
- Videodarslar va onlayn resurslar yordamida o'quv jarayonini individuallashtirish mumkin.

Ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish

- Raqamli texnologiyalar yordamida talabalar faoliyatini kuzatish va natijalarni tahlil qilish osonlashadi.
- Big Data va Learning Analytics texnologiyalari ta'lim jarayonini shaxsiylashtirishga yordam beradi.

Ko'p formatlilik

- Multimedia vositalari: video, audio, grafik va matnlarni birlashtirish orqali bilimlarni samarali yetkazish.
- Simulyatorlar va VR texnologiyalari yordamida amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash.

Raqobatbardoshlikni oshirish

- Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarga global bozor talablariga mos bilim va ko'nikmalarni berish.
- Masofaviy ta'lim va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Moliyaviy samaradorlik

- Darsliklarni elektron shaklga o'tkazish va onlayn resurslardan foydalanish xarajatlarni kamaytiradi.
- Kampus infratuzilmasini raqamlashtirish orqali boshqaruv xarajatlarini qisqartirish.

Qulay monitoring va baholash

- Talabalar bilimni baholash jarayoni avtomatlashtiriladi.
- Test va topshiriqlar natijalari tezkor tahlil qilinadi.

Zamonaviy texnologiyalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri

Zamonaviy texnologiyalar talabalarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- **Motivatsiyani oshirish:** Interaktiv texnologiyalar o'quv jarayonini qiziqarli qiladi.
- **O'zlashtirish darajasini yaxshilash:** Videodarslar va virtual tajribalar mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.
- **Hamkorlikni rivojlantirish:** Onlayn muhokamalar va jamoaviy loyihalar orqali talabalar birgalikda ishlashni o'rganadi.

Kredit-modul tizimida texnologiyalardan foydalanish strategiyalari

Ta'lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi strategiyalarni qo'llash mumkin:

- **O'quv dasturlarini raqamlashtirish:** Har bir modul uchun maxsus elektron resurslarni ishlab chiqish.
- **O'qituvchilar malakasini oshirish:** Zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish bo'yicha treninglar tashkil qilish.
- **Raqamli baholash tizimlarini joriy etish:** Onlayn testlar va topshiriqlar orqali talabalarni baholash.

Amaliy misollar: O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash tajribasi

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida raqamli platformalarni joriy etish orqali o'quv jarayonida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, **Moodle** kabi ta'lim platformalarini

tatbiq etish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Quyida ayrim amaliy misollar keltiriladi:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tajribasi

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida **aralash ta'lim tizimi** (blended learning) joriy etilishi bilan bir qatorda Moodle platformasi muvaffaqiyatli qo'llanmoqda. Ushbu platforma yordamida:

- **Talabalarning o'zlashtirishi yaxshilandi:** Talabalar darsliklar, videodarslar va topshiriqlarga 24/7 rejimida kirish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Natijada mustaqil o'qish imkoniyatlari kengaydi.
- **Baholash jarayoni avtomatlashtirildi:** Moodle orqali test va boshqa topshiriqlarni avtomatik baholash tizimi joriy qilindi, bu esa vaqtni tejash bilan birga baholashning shaffofligini ta'minladi.
- **Interaktivlik oshirildi:** Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida doimiy aloqa ta'minlandi, bu esa o'quv jarayonida faol ishtirokni rag'batlantirdi.

Misol uchun, iqtisodiyot yo'nalishi talabalariga moliyaviy tahlil bo'yicha interaktiv topshiriqlar berildi. Moodle platformasi yordamida talabalar ushbu topshiriqlarni masofadan turib bajardilar va o'qituvchilar tomonidan tezkor tahlil etildi. Natijada, ularning mavzuni o'zlashtirishi sezilarli darajada yaxshilandi.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tajribasi

Toshkent axborot texnologiyalari universitetida masofaviy ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Universitetda:

- **Microsoft Teams va Moodle integratsiyasi** amalga oshirildi. Bu talabalar uchun darslarni real vaqt rejimida kuzatish va yozuvlarini qayta ko'rish imkonini yaratdi.
- **Laboratoriya ishlarini virtual amalga oshirish imkoniyati** paydo bo'ldi. Simulyatsiya dasturlari yordamida talabalar murakkab laboratoriya ishlarini masofadan turib ham bajarish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Misol tariqasida, dasturiy injiniring yo'nalishida o'qiydigan talabalar algoritmlarni tuzish va kodlash bo'yicha maxsus virtual laboratoriyalar orqali bilim va ko'nikmalarini amalda sinovdan o'tkazish imkoniga ega bo'lishdi.

Toshkent davlat pedagogika universiteti tajribasi

Toshkent davlat pedagogika universitetida **Edmodo** va boshqa raqamli platformalar ta'lim jarayoniga tatbiq etildi. Bu platformalar orqali:

- Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ijodiy muloqotni rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ldi.
- **O'quv jarayonini monitoring qilish tizimi** yo'lga qo'yildi, bu esa talabalarning har bir faoliyatini kuzatib borish va individual yondashuvni amalga oshirishni osonlashtirdi.

Masalan, boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun dars metodikalariga oid topshiriqlar Edmodo orqali berildi. Talabalar ushbu topshiriqlarni o'z vaqtida topshirishdi va o'qituvchilar tomonidan tezkor tahlil qilindi. Ushbu tajriba talabalarning mas'uliyatini oshirganini ko'rsatdi.

Natijalar va samaradorlikning o'sishi

Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning natijalari quyidagicha namoyon bo'ldi:

- Talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari rivojlandi.
- O'quv jarayonining shaffofligi va monitoringi sezilarli darajada yaxshilandi.
- Masofaviy va aralash ta'lim imkoniyatlari kengaydi, bu esa pandemiya davrida ta'limning uzluksizligini ta'minladi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalaridagi ushbu amaliy tajribalar ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning muhim rol o'ynashini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu tajribalarni yanada kengroq qo'llash orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish mumkin.

Xulosa

Kredit-modul tizimida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash O'zbekiston oliy ta'lim tizimining rivojlanishida muhim qadam hisoblanadi. Ushbu tizimning samaradorligini oshirishda raqamli platformalar, interaktiv ta'lim vositalari va innovatsion yondashuvlar asosiy o'rin tutadi. Zamonaviy texnologiyalar nafaqat ta'lim jarayonini soddalashtiradi, balki talabalarning mustaqil bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va o'qituvchilar uchun yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratadi.

Raqamli vositalar, xususan, Moodle, Microsoft Teams va Edmodo platformalarining tatbiq etilishi orqali:

- Talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqot samaradorligi oshdi.
- Ta’lim jarayonining shaffofligi ta’minlandi va baholash tizimi avtomatlashtirildi.
- Masofaviy va aralash ta’lim shakllarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalaridagi tajribalar, jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Toshkent davlat pedagogika universitetlarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonini sezilarli darajada yaxshilaganini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuv natijasida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham samarali egallashga muvaffaq bo‘lmoqda.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishning qo‘shimcha afzalliklari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- Talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlari kengaydi.
- O‘quv jarayoni uchun kerakli resurslar va materiallarga 24/7 rejimida kirish imkoniyati yaratildi.
- Ta’lim jarayoni interaktiv va qiziqarli shaklda tashkil etilib, talabalar faolligi oshirildi.

Kredit-modul tizimida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki ta’lim tizimini global talablarga moslashtirish imkonini beradi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda quyidagi choralarga e’tibor qaratish lozim:

1. Zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishini kengaytirish va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish.
2. Raqamli platformalar bo‘yicha o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash va ularning ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borish.
3. Talabalar uchun innovatsion yondashuvlarga asoslangan yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali kredit-modul tizimining zamonaviy texnologiyalar yordamida samaradorligini yanada oshirish va milliy ta’lim tizimining xalqaro standartlarga moslashuvini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.** (2021-yil 12-avgust). "Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish to'g'risida." [Normativ hujjatlar portali](#).
2. **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.** (2019-yil 24-iyul). "Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish bo'yicha dastur." [Vazirlar Mahkamasi portali](#).
3. **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.** (2022). "Aralash ta'lim tizimida Moodle platformasidan foydalanish tajribasi." Universitet ichki hisobotlari.
4. **Usmonov, A.** (2021). "Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning samaradorligi." *O'zMU ilmiy jurnalining maxsus soni*, 34(4), 56–62.
5. **YUNESKO hisobotlari.** (2020). "Zamonaviy texnologiyalarning ta'limdagi o'rni: Raqamli transformatsiya." [UNESCO](#).
6. **Qayumova, D. B.** (2020). "Oliy ta'limda interaktiv texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati." *O'zbekiston pedagogik innovatsiyalar markazi ilmiy jurnali*, 22(3), 45–53.
7. **OECD ta'lim hisobotlari.** (2021). "Kredit-modul tizimlarining xalqaro tajribasi va O'zbekistondagi transformatsiya." [OECD.org](#).
8. **Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.** (2022). "Raqamli ta'lim texnologiyalarining samaradorligi bo'yicha tadqiqot." Universitetning ilmiy axborotlari.
9. **Tursunov, B. K.** (2021). "Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari." *Milliy innovatsiyalar jurnali*, 15(6), 29–35.
10. **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.** (2023). "Kredit-modul tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha strategiya." Rasmiy nashrlar.
11. Moodle rasmiy veb-sayti: <https://moodle.org>
12. Blended learning haqida xalqaro tadqiqotlar: Smith, K. (2022). **Blended Learning Strategies in Higher Education.** Cambridge University Press.

**XOLESTERIN TASHILISHIDA QATNASHUVCHI APO OQSILLAR.YOG'
BOSISH, SEMIRISH. ATEROSKLEROZ RIVOJLANISHING BIOKIMYOVIY
ASOSLARI. O'T-TOSH KASALLIKLARI.**

Fayzullayeva Gulruh Ilhom qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,

Tibbiyot fakulteti talabasi

e-mail: gulruhfayzullayeva92@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xolesterin tashilishida qatnashuvchi apo oqsillari haqida ma'lumotlar berildi. Yog' bosish, semirish kasalliklari yosharib borayotgani va keng tarqalayitganligi sababli ushbu kasalliklarga ham alohida to'xtalib o'tildi. Ateroskleroz rivojlanishining biokimyoviy asoslari tushuntirilib berildiva ateroskleroz kasalligini oldini olishga oid tavsiyalar berildi. Bundan tashqari ushbu maqolada O't-tosh kasalliklari haqida so'z bordi va ma'lumotlar berildi.

Asosiy qism. Xolesterin, xolesterol — sterinlar guruhiga mansub modda. Birinchi marta o't toshidan ajratib olingan. Suvda erimaydi, organik erituvchilarda yaxshi eriydi, rangsiz kristall. X. barcha tirik organizmlarda uchraydi; X.ning ko'p qismi nerv hamda yog' to'qimalarida, tuxum va sperma hujayralarida, jigarda (X. biosintez qilinadi), buyrak usti bezlarida va boshqalarda bo'ladi. Qon plazmasida X. yuqori yog' kislotalari (olein kislota) bilan birga murakkab efir holida uchraydi. Organizmda X. buyrak usti bezlari gormonlari, o't kislotalar, D vitamini va boshqa almashinuvida qatnashadi. Odam qonida o'rtacha 150–200 mg% X. bo'ladi. Ko'proq yog'li ovqat iste'mol qiladigan kishilarda X. miqdori ko'payadi, bu o't toshlari hosil bo'lishiga, qon tomirlari devorida X. to'planishiga va moddalar almashinuvining buzilishi va boshqalarga olib keladi. Odam organizmida bir kunda 1 mg xolesterin o't suyuqligiga aylanadi. Lipid almashinuvining buzilishi ateroskleroz rivojlanishining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Aterosklerozning rivojlanishida xolesterinning roli rus patolog, SSSR Fanlar akademiyasi va Tibbiyot fanlari akademiyasining akademigi Nikolay Nikolaevich Anichkov^[16] (1885-1964) tomonidan kashf etilgan.

Lipidlar almashinuvining aterogen buzilishlariga quyidagilar kiradi:

Umumiy qon xolesterin darajasining oshishi

Triglitsridlar va past zichlikdagi lipoproteinlar (LDL) darajasining oshishi

Yuqori zichlikdagi lipoproteinlar (HDL) darajasini pasaytirish.

Yuqori xolesterin darajasi va ateroskleroz o'rtasidagi bog'liqlik noaniqdir: bir tomondan, qon plazmasidagi xolesterin miqdorining oshishi ateroskleroz uchun shubhasiz xavf omili hisoblanadi, boshqa tomondan, ateroskleroz ko'pincha normal xolesterin darajasi bo'lgan odamlarda rivojlanadi. Aslida, yuqori xolesterin ateroskleroz uchun ko'plab xavf omillaridan biri (semizlik, chekish, diabet, gipertenziya). Oddiy xolesterin darajasiga ega bo'lgan odamlarda ushbu omillarning mavjudligi qon tomirlari devorlariga erkin xolesterinning zararli ta'sirini keltirib chiqaradi va shu bilan qondagi xolesterinning past konsentratsiyasida aterosklerozning paydo bo'lishiga olib keladi.

Bundan tashqari, xolesterin muammosi bo'yicha boshqa nuqtai nazar mavjud. Xolesterin "ta'mirlash" moddasi sifatida qon tomirlarining mikro zararlanish joylarida to'planadi va bu zararni bloklaydi, bir hil dorivor rolni bajaradi. Shuning uchun ateroskleroz normal xolesterin darajasiga ega bo'lgan odamlarda paydo bo'ladi. Yuqori darajada bo'lgan odamlarda muammo tezroq paydo bo'ladi, bundan tashqari, yuqori xolesterin darajasining mavjudligini statistik jihatdan ateroskleroz bilan bog'lash osonroq bo'ladi, bu tadqiqotlar boshida qilingan, shuning uchun xolesterin barcha kasalliklarning aybdori deb e'lon qilingan. Shuning uchun, xolesterin darajasini oddiygina pasaytirishning o'zi qon tomirlari bilan bog'liq barcha muammolarni hal qilmaydi. Bu holda xolesterin etishmasligi qon ketishiga olib kelishi mumkin. Qon tomirlarining shikastlanish sabablarini qo'shimcha o'rganish va ularni davolash usullarini ishlab chiqish talab etiladi.

Eng agressiv va xavfli xolesterin türevleri oksisterollardir .

Sog'lom turmush tarzi: ortiqcha vazn yo'qotish, muntazam jismoniy mashqlar va kam yog'li diet ^[17] ^[18] .

Yomon xolesterin miqdorini kamaytiradigan dorilar, turmush tarzining ijobiy o'zgarishi yomon xolesterin darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasa, buyuriladi. Yomon xolesterinni kamaytirish uchun eng ko'p ishlatiladigan dorilar statinlardir . Xolesterinni kamaytiradigan dorilar (masalan, simvastatin, pravastatin, atorvastatin) bo'lgan statinlar birinchi tanlovdir. ^[19] Yomon xolesterinni pasaytirish uchun qo'llaniladigan boshqa dorilarga quyidagilar kiradi: polikosanol , nikotinic kislota (niatsin , niatsin + laropiprant), ichakda xolesterinni singdirish inhibitori ezetimibe (Zetia, Ezetrol), kombinatsiyalar (inegy, vytorin),

Bolaning (gudakning) bu davrdagi nutqi asosan kattalarning savoliga javobi yoki ularga bo'lgan munosabati, qandaydir muammolarni hal qilish, o'z talablarini qondirish maqsadida qilingan murojaatlardan iborat bo'ladi. Bolaning nutqiy muloqotda bo'lishi asosan taqlidiy ko'rinishda bo'lgan turli gaplarni qo'llashdan boshlanadi. Keyinroq esa uning nutqida so'roq va darak gaplar paydo bo'ladi.

Henry Walter Edward Klopping so'zlashuv nutqining, leksik qashshoqligi, so'z qo'llanishining potensial erkinligi, olmoshlarning faol qo'llanishi, suhbat jarayonida tuxtashlar bo'lishi, uni imo-ishoralar, mimikalar bilan to'ldirilishi kabi o'ziga xos ko'rinishlarini ta'kidlab o'tadi[1]. So'zlashuv nutqining shakli bo'lgan suhbat – keng qamrovdagi biron mavzu va maqsadga qaratilgan dialogdir. Suhbatning asosi savol va javobdan iborat bo'ladi. Dialog – suhbatga nisbatan muloqotning sodda shaklidir. Zamonaviy

kommunikativ o'qitish tizimida Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar kommunikativ malakalarini rivojlantirish uchun so'zlash va uni qabul qilish jarayonini, suhbat faoliyatining o'zaro bog'liqligi o'zaro hisobga olish kerak. Monologik nutq – nutq bazasida kechroq shakllanadi. Maktabda bayon etiladigan monologlar – bu rasm, rasm seriyalari, ko'rgan kino filmlar asosida suhbat, o'qilgan matnlar asosida suhbatlar tarzida namoyon bo'ladi. Monologik suhbat diologik suhbatga nisbatan ancha keng qamrovli bo'ladi. Monologik nutqni dialogik nutqdan farqi, u bir necha kishi emas, bir kishi nutqini ko'zda tutadi. Shuning uchun u har bir tinglovchiga tushunarli bo'lishi kerak. Tashqi nutq – yozma va og'zaki shaklda bo'ladi. Nutq orqali ikki kishini bir-biri bilan o'zaro suhbatini ko'zda tutuvchi nutq shakli yozma va og'zaki tarzda bo'ladi. Og'zaki nutq eshitilsa, yozma nutq ko'z bilan ko'riladi. Har ikkalasi o'zining xususiyatlariga egadir[5]. Og'zaki nutq – diolog, suhbat, gaplashish orqali insonlarning bir-biri bilan muloqotidir. U eshituvchi va gapiruvchilar asosida tashkil topgan. U intonatsiya, pauza, logik urg'u, temp, jest va mimikalardan iborat. Bu narsalar eshituvchi va so'zlashuvchini bir-birini tushunishi uchun yordam beradi. Shuningdek, og'zaki nutq vositasida suhbatdosh har vaqt aytganini qaytarishi va unga qo'shimcha tushuncha kirgiza olishi mumkin. Shuning uchun og'zaki nutq sintaktik murakkab konstruksiyalarga qaraganda oddiy, sodda, qisqa gaplardan iborat bo'ladi. Cuhbatdosh og'zaki nutqini oldindan uylamay, bayon etganligi uchun u qisqa va tayyorgarliksiz bo'ladi.

Yozma nutq – uning suhbatdoshi bo'lmaganligi sababli vaqt tanlamaydi. Unda intonatsiya va mimika bo'lmaydi, shuning uchun uning tuzilishi murakkabroq. Yozma nutq tayyorgarlikni va tekshiruvni talab qiladi. Yozma nutq mavzu va nutqning keng ko'lamda bayon etilishini, so'zlarning o'zaro bog'liqligini ko'zda tutadi[4]. Yozma nutqda hamma bayon qilingan material aniq va ravon bo'lishi kerak. Yozma nutq yanada tushunarli bo'lishi uchun unda matnlarni abzaslarga bo'lish, kerakli so'zlarni ajratib yozish kerak. V.Y. Lyaudis va I.P. Negirelarning fikri bo'yicha yozma nutq ikki asosiy xususiyatga ega so'zning ma'nosini va ifodasini tashkil etadi. Mavzu tanlash; uning chegaralari belgilash, ma'nosini keng qamrovliligini, markkabliligi katta ahamiyatlidir. Matnni ma'nosini ifoda qilishda so'zlarni to'g'ri tanlash va gap tuzishda so'zlarning sintaksik tuzilishi ahamiyatga ega[3]. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar kommunikativ malakalarini rivojlantirish ham dialogik nutqini rivojlantirishdan boshlanadi. Chunki nutqning bu ko'rinishi o'qituvchining sinf o'quvchilari bilan o'zaro muloqotda bo'lishi uchun qo'lay va tabiiy ekanligi bilan ajralib

turadi. Dialogik nutqning o'ziga xos jihatlari psixologik va lingvistik adabiyotlarda keng yoritilgan. Dialogning asosiy belgisi savol tashlash, suhbatdoshlarning navbatma-navbat savol-javob shaklida so'zlashuvlari bilan belgilanadi. Bunda navbatdagi replika o'zidan oldingisining natijasi sifatida paydo bo'ladi. Replikani gaplar bilan almashinuvi, oldindan o'ylab olinmasdan suhbat paytidagi vaziyatga qarab amalga oshiriladi. Dialogda keng ko'lamli gaplarga ehtiyoj bo'lmaydi, chunki uning mazmuni vaziyatga qarab, intonatsiya, mimika va qo'l harakatlari bilan to'ldirilib boradi. Dialogik nutq kattalar va bolalarning birgalikdagi faoliyati tufayli yuzaga keladi. Nutqning murakkablashuvi bolalar jamoasining rivojlanishi tufayli paydo bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Maxsus pedagogika (darslik). P.M.Po'latova, L.Sh.Nurmuxammedova, D.B.Yakubjanova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova. T., "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2014.
2. Henry Walter Edward Klopping Language understanding of deaf students under three auditory-visual stimulus conditions — The University of Arizona, Arizona USA , 2012-56 p
3. Thomas Arnold A method of teaching the deaf and dumb speech, lip-reading, and language – London , 2010. -44 p.
4. Малофеев Н. Н. Современный этап в развитии специального образования в России: Результаты исследования как основа для построения программы развития // Дефектология. — 2017. — № 4. — С. 3—15.
5. Назарова, Н. М. Сурдопедагог: история, современ, проблемы, перспективы проф. подгот. — М.: Педагогика, 1992. 456 с.

BADIIY ADABIYOT VOSITASIDA NUTQIDA NUQSONI BOLGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIALOGIK NUTQ SHAKLLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJOBIY SAMARASI

Umarova Muhayyo Abdusattor qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bolgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarni shakllantirish mazmuni tahlili berilgan. Mazkur maqolada badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bolgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarni shakllantirishning ijobiy samarasi yoritiladi.

Tayanch soʻzlar: eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar, badiiy adabiyot, nutq, nutqida nuqsoni bolgan maktabgacha yoshdagi bolalar, dialogik nutq shakllari, ijtimoiy omillar, biologik omillar

Аннотация: В статье представлен анализ содержания формирования диалогических форм речи у детей дошкольного возраста с дефектами речи средствами художественной литературы. В данной статье освещен положительный эффект формирования диалогических форм речи у детей дошкольного возраста с дефектами речи посредством художественной литературы.

Ключевые слова: слабослышащие дети, художественная литература, речь, речевые дошкольники, диалогические речевые модели, социальные факторы, биологические факторы.

Jahonda badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bolgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarni shakllantirishning metodikalari tatbiq etilgan. Jumladan, Rossiya, Singapur, Gonkong, Yaponiya, Finlandiya, AQSh, Germaniya, Angliya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlarda savodxonlik, mantiqiy tafakkur va intellektual salohiyatni oshirish boʻyicha amaliy ishlar ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan texnologiyalardan foydalanib, maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq malakalarini rivojlantirish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Jahon ta'lim amaliyotida nutqida nuqsoni bolgan maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy matnni tushunish, uning mazmunini anglash va idrok etishning nazariy asoslari ilmiy, ilmiy-metodik jihatdan tadqiq etilmoqda. Finlandiyada kitobxonlik darajasini oshirishda ota-onaning mas'uliyatini kuchaytirish, AQShda badiiy-estetik tafakkur tarbiyasi, Germaniyada bolalar adabiyotida dramaga oid tushunchalarni shakllantirish yuzasidan ilmiy- tadqiqot ishlari olib borilmoqda. badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bolgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarni shakllantirish va ularni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim-tarbiya oluvchi har bir bolaning zamon talabi asosida har tomonlama shakllangan shaxs bo'lib jamiyat ishlarida faol qatnashishiga nutqning to'g'ri rivojlanishi juda katta ahamiyatga ega. Chunki, nutq-bu kishilararo muloqot vositasi, milliy boylik hamda ta'lim-tarbiya, maorif va ijodiyot uchun qudratli vositadir. Shu bois har bir insonni nutqni puxta egallash, o'z fikrini to'liq ifoda etishga o'rgatish muhimdir.. Ma'lumki, bolalar nutqi kattalar va atrofdagilar nutqining ta'siri ostida rivojlanib boradi. Muloqot jarayonida nutqning eng oddiy ko'rinishlari keyinchalik rivojlanib murakkabroq ko'rinishlarga aylanadi va mukammal nutq shakllanishiga puxta zamin yaratadi. Go'dakning atrofidagi odamlar nutqini idrok qilishi tom ma'noda uning nutq faoliyatini tarkib toptiradi [4]. Nutqning to'g'ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutqiy muhit va ta'lim-tarbiyaga bog'liqdir.

Nutq kishilarning til vositasi orqali o'zaro muloqot va aloqa qilish jarayonining tarixiy tarkib topgan shaklidir. So'zlashuv nutq rang-barang ifodali tovushlarning majmuasidan iborat. Bu tovushlar oliy nerv sistemasining signallari vositasida, nutq organlarining turlicha shakllanishi yoki harakati natijasida paydo bo'ladi [3].

Nutq tug'ma qobiliyat emas, bu imkoniyat shaklida har insonda mavjud bo'lib, u bolaning ontogenezida jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan bir davrda shakllanib boradi.

Nutq buzilishlarini o'rganish uchun bolalar nutqining ma'lum me'yorda rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi ob'ektiv va sub'ektiv sharoitni, shuning bilan birga bolalar nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilishimiz zarur.Rivojlanayotgan nutq dastlab muomala, belgilash vositasi sifatida chiqadi, keyinchalik fikrlash va fikrlarni bayon etish quroliga aylanadi, insonning xulq-atvori va faoliyatini tashkil etadi. Bola nutq bilan birga taqlil va sintezning yuqori ruhiy shakllariga, borliqni umumlashtirgan tarzda aks ettirish, o'z niyatlari va harakatlarini anglash va

boshqarish qobiliyatlariga ega bo'ladi. S.A. Zikov fikricha, nutq bola ruhiyati shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, rivojlanishida nuqsoni bor bolaning rivojlanish qonuniyatlarini tushunish va unga maxsus ta'sir etish usullarini aniqlash uchun uning ahamiyati yanada oshadi[3]. Nutq to'g'risidagi hozirgi tasavvurlar uni miya qobig'ining har biri nutq jarayonining u yoki bu tomonini ta'minlaydigan qator zonalarining birgalikdagi ishiga tayanadigan murakkab funksional tizim sifatida qarash imkonini beradi.

R.M. Boskis, Ye.G. Rechiskaya ilmiy-tadqiqotlarida nutqni harakatlantiruvchi va akustik analizatorlarning birgalikdagi ishi nutqning psixofiziologik asosini tashkil etadi. Nutqning psixologik strukturasi kelganda esa, shuni aytish mumkinki, nutq ikki darajada – so'zning moddiy asosini ta'minlab beruvchi sensomotor darajada va so'z hamda gaplarning ma'nosi va mohiyati darajasida amalga oshiriladi. Har ikkala daraja ham, har bir darajaning barcha bo'g'inlari ham o'zaro yaqin aloqada bo'ladi. degan fikrlar e'tirof etiladi[4].

Nutqning bizning hayotimizdagi ahamiyatini baholash juda qiyin. Muloqot vositasi sifatidagi nutq bir vaqtning o'zida biz uchun fikrlashning muhim quroli bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, nutq insonning muhim ruhiy funksiyasi hisoblanadi. Nutqiy muloqot faqat insongagina xos bo'lgan odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqa usullarini yaratadi va shu tufayli bilish faoliyatining oliy shakllari rivojlanadi.

Nutqning me'yorida va nuqsonli rivojlanish muammosi umumiy va maxsus pedagogikada o'rganib chiqilgan. R.M. Boskis ta'kidlashicha, bola ijtimoiy va biologik omillar asosida nutqni egallaydi, ulardan birining buzilishi yoki yetishmasligi nutq patologiyasiga olib keladi. U yoki bu nutq buzilishi bor bola atrofdagilarning nutqini tushuna olmaydi va o'zi ham gapira olmaydi. Maxsus korreksion-pedagogik ta'sirsiz bolaning har tomonlama ma'naviy, jismoniy, nutqiy rivojlanishini va maktabga tayyorlashni ta'minlab bo'lmaydi[1].

Defektolog-olimlarning tadqiqotlarida A.S. Vigotskiyning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan anomal bolalar ruhiyatining rivojlanishi normal bola rivojlanishida kuzatiladigan asosiy qonuniyatlarga bo'ysunadi degan qoidasi katta rol o'ynaydi. L.S. Vigotskiyning ilmiy-metodologik konsepsiyasi anomal bolalarni, xususan nutqida buzilishlari bor bolalarni maxsus o'qitish va tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishga yordam berdi.

L.S. Vigotskiy defektologiya muammolariga nuqtai nazarining umumiy tizimida quyidagilarni yetakchi sifatida ko'rsatish mumkin[2]:

- anomal bolalarni ruhiy rivojlantirishning muhim imkoniyatlari g'oyasi;

- anomal bolalar rivojlanishiga ijtimoiy ta'sirlarning, xususan pedagogik ta'sirlarning hal qiluvchi roli to'g'risidagi qoida;

- patologik rivojlanayotgan bola shaxsining shakllanishida jamoa faoliyatining (o'quv, o'yin, mehnat) yetakchi ahamiyati to'g'risidagi xulosa.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili asosida, bola ruhiyatining shakllanishi, nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etishga badiiy adabiyot katta ijobiy ta'siri to'g'risidagi fikr qo'llab-quvvatlandi va rivojlantirildi. Bundan tashqari, tadqiqotlarda u yoki bu nutq buzilishlari bolada ijtimoiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishda ham badiiy adabiyot ahamiyati byoqiyosligi to'g'risidagi fikr ham o'z aksini topdi. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish yoki oldini olish bolaning tengdoshlari bilan muloqotini yo'lga qo'yish, uni jamoa faoliyatiga qo'shilishiga yordam beradi. [1].

Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bolgan bolaning dialogik nutq shakllarni shakllantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadigan bolalarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasining kuchli ta'sirchan vositasidir. U his-tuyg'ularni boyitadi, tasavvurni kuchaytiradi, bolaga o'zbek adabiy tilining ajoyib namunalarini beradi. Badiiy adabiyot bolaga jamiyat va tabiat hayotini, odamlarning hissiyotlari va munosabatlar dunyosini ochadi va tushuntiradi. Bu bolaning tafakkuri va tasavvurini rivojlantiradi, his-tuyg'ularini boyitadi va o'zbek adabiy tilining ajoyib namunalarini beradi. Uning tarbiyaviy, kognitiv va estetik ahamiyati beqiyosdir, chunki bolaning atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarini kengaytirish, ona tilining shakli va ritmini nozik his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Badiiy adabiyot insonga hayotining birinchi yillaridanoq hamroh bo'ladi. Bolaning ongida adabiy asar mazmun va badiiy shakl birligida paydo bo'ladi. Bola bunga tayyorlangandagina adabiy asarni idrok etish to'liq bo'ladi. Va buning uchun bolalarning e'tiborini nafaqat mazmuniga, balki ertak, hikoya, she'r va boshqa badiiy asarlar tilining ifodali vositalariga ham jalb qilish kerak. Hikoyalarda bolalar so'zning ixchamligi va aniqligini o'rganadilar; xalq ertaklarida, tilning yengilligi va ta'sirchanligini, hazil bilan nutq boyligini, jonli va obrazli iboralar, taqqoslashlar bolalar oldida ochib beradilar. Badiiy adabiyot qahramonning shaxsiyati va ichki dunyosiga qiziqish uyg'otadi. Maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bolgan bolalarda insonparvarlik, xushmuomalalik, adolatsizlikka qarshi norozilik tuyg'ulari uyg'otadi. Asta-sekin maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bolgan bolalar ijodkorlik munosabatini rivojlantiradi va badiiy did shakllanadi.

Adabiyotlar

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. - T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
2. R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog`chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., —O'qituvchi||2013.
3. Жукова Н. С., Мастюкова Е. М., Филичева Т. Б. Логопедия. Преодоление общего недоразвития речи у дошкольников.-Екатеренбург: Изд-во АРД ЛТД, 2018.
4. Иваненко С.Ф. Формирование восприятия речи у детей с тяжёлыми нарушениями произношения. – М.: 2024
5. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 2019.
6. Логопедия // ред.Л.С.Волкова, С.Н.Шаховская. –М.. ВЛАДОС, 2018.

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TALLAFUZ MALAKASINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SAMARASI

Mamarajabova Zulfiya Narbayevna

Nizomiy nomidagi TDPU professori, p.f. d.

Sobirova Xayotxon Shavkatovna

Nizomiy nomidagi TDPU magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tallafuz malakasini shakllantirish jarayonida qo'llaniluvchi pedagogik texnologiyalar tahlili berilgan. Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tallafuz malakasini shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiya samarasi yoritiladi.

Tayanch so'zlar: eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, tallafuz malakasi, pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, interaktiv metodlar, o'quv faoliyat

Аннотация: В данной статье представлен анализ педагогических технологий, используемых в процессе формирования произношения у детей с нарушением слуха. В данной статье освещается эффективность педагогических технологий в процессе формирования произношения у детей с нарушением слуха.

Ключевые слова: слабослышащие дети, произношения, педагогические технологии, интерактивные методы, интерактивные методы, учебная деятельность.

Abstract: This article presents an analysis of pedagogical technologies used in the process of developing pronunciation in children with hearing impairments. This article highlights the effectiveness of pedagogical technologies in the process of developing pronunciation in children with hearing impairments.

Keywords: hearing-impaired children, pronunciation, pedagogical technologies, interactive methods, interactive methods, educational activities. Bugungi kunda barcha sohalar kabi ta'lim sohasi ham innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Bunday innovatsiyalar ta'limda o'quvchini komil

inson sifatida tarbiyalash maqsadiga xizmat qiladi va bu ko'plab iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi.

Metodist olim I.L.Bim ta'lim metodlarini o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati, o'qitish hamda ta'lim berishda muayyan maqsadlarga erishish yo'li, usuli sifatida ta'riflab, ularning o'ziga xosliklarini ajratib ko'rsatadi. Mazkur metodlar bir-birini to'ldira oladi, chunki o'qituvchi va o'quvchi ayni bir ta'lim jarayonining ishtirokchilari sanalib, unda o'quvchi u yoki bu o'quv faoliyatini amalga oshiradi.

Ma'lumki, pedagogik texnologiya - bu butun o'qitish va bilimlarini o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shakllarining samaradorligini oshirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs zaxiralari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli uslubidir. Pedagogik texnologiya o'qitishga o'ziga xos bo'lgan yangicha yondashuv (innovatsiya)dan iborat bo'lib, o'yin usullarini ta'lim tizimi, dars jarayonida tatbiq etilishi muhim va samarali natija beradi. Yangi pedagogik texnologiyalarni maxsus maktab ta'lim tizimiga kiritish, tatbiq etish, qiziqarli usullardan foydalanish, o'zining samarasini bermokda. Inson xayotida og'zaki nutqning ahamiyatini, kar va zaif eshituvchi bolalar uni egallash imkoniyatini hisobga olgan holda, maxsus ta'lim jarayoni o'quvchilarni og'zaki nutqini muloqat quroli sifatida shakllantirish masalasini o'z oldiga maksad qilib qo'yadi[3].

Zero, interaktiv metodlar yangi pedagogik texnologiya usuli sanalib, o'quv materialini muayyan bilimlarga ega bulib, o'quvchilarni o'zlariga taalluqli ma'lumotni bu bilimlardan topish va nutqni rivoj-lantirishga asoslangan. Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutg'ini muloqat quroli sifatida shakllantirishdan ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish zarurati interaktiv usullarning samaradorligini, kerakli bilim va ko'nikmalar egallashda ahamiyatli ekanini dalillamokda. Ta'limni motivlash o'quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. U tafakkur faollashishiga, tanqidiy mushoxada qilishga, nutqning rivojlanishiga, u yoki bu vazifani bajarishga qiziqish uyg'otadi. Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini faollashtirish, ularning yangi materialni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda maqsadga erishishni ta'minlovchi ta'lim usullari kuchli motivlashtiruvchi omildir. Hozirgi vaqtda eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini o'zaro muloqotlar orqali rivojlantirishda shaxsiy munosabatlarni hisobga olgan holda o'qituvchi va o'quvchilar guruhi (o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-

o'quvchi) faoliyat ko'rsatishlari zarurligi ma'lum[4]. Chunki guruhdagi faoliyatlar o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zaro muloqot eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarda fikr almashish va so'zlashuv malakasini shakllantirishga imkon yaratadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tallafuz malakasini shakllanishida, nutqiy rivojlanishni va nutqiy muloqotni amalga oshirishda interfaol usullarning ahamiyati katta. Ma'lumki, interfaol usullar ob'ektiv olamdagi inson amaliy faoliyatini shartli ravishda aks ettirishda, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Interfaol usullar eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini faollashtiradi va motivlashtiradi.

Interfaol usullarga asoslangan ta'lim o'quvchilarni uyushtiradi va bilim imkoniyatlarini kengaytirib, shaxs sifatida shakllantiradi. Interfaol usullar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning erkin fikrlashi, suhbatdoshiga nimanidir aytishi, so'rashi, isbot qilishi, tushuntirishiga imkoniyat yaratadi. Dialogdan farkli ravishda, interfaol usullarimaga (motiv) va nima uchun (maqsad, sabab) kabi savollarga javob beradi, o'quvchilarning asosiy diqqatini suhbat mazmuniga qaratadi. O'quvchilar ta'lim jarayonida suhbatni boshlash, suhbatdoshi nutqini labidan, imo-ishoralardan o'qish, savollar berish, savollarga javob berish kabi malakalarni egallaydilar. Muloqotda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'yin jarayonida emas, balki undan keyin muhokama qilish maqsadga muvofiqdir[2]. Bolalar nutqini rivojlantirish davomida mustaqil fikrlashga, izlanuvchanlikka va umumlashtirishga undovchi usullarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni yangi material bilan tanishtirishda, oldin o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashda, ularning so'z boyligini oshirish va tafakkurini rivojlantirishda interfaol usulardan foydalanish mumkin. O'quvchilarga individual yondoshib, mos topshiriq berish ularning qobiliyatini o'stirishni ta'minlaydi. O'quvchilar diqqatini topshiriqning eng muhim va murakkabroq jihatlariga qaratish, ularni belgilariga qiziqishlarini oshirish joiz. Bu ulardagi ijodkorlik hususiyatlarini rivojlantiradi. Ta'kidlash joizki, soddalik, bir xillik, hoxishsiz takrorlashlar bolalarni toliqtirib, befarq qilib qo'yadi. Interfaol usullarni qo'llash davomida «Kim tez bajaradi?» - deb faolliklarini oshirish ularda qiziqish uyg'otadi[1]. Shuningdek, topshiriqlarni bajarishda bolalar g'olib chiqish, boshqalardan orqada qolmaslik, ularni bajarishga qodir ekanini ko'rsatish hissi bilan harakat qiladilar. O'qituvchi o'quvchilarga topshiriq mohiyatini tushuntirishda og'zaki-daktil va imo-ishora nutqidan foydalanadi. Agar eshitish nuqsoni bo'lgan o'quvchi topshiriqni og'zaki nutq vositasida bayon etishga qiynalsa, imo-ishora yoki daktil nutqi vositasida bayon etadi, so'ng o'qituvchi o'quvchini vazifani

ogʻzaki nutq vositasida bajarishga undaydi. Ushbu usul maxsus maktab oʻquvchilarini mustaqil ijodiy ishlashga, oʻz fikrlarini erkin bayon qilishga undaydi hamda ogʻzaki, yozma nutqini rivojlantiradi.

Adabiyotlar

1. Богданова Т.Г. Сурдопсихология. – М.: Академия, 2002.
2. Poʻlatova P., Nurmuxamedova L., Sh. Amirsaidova Maxsus pedagogika - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2014
3. Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушенным слухом. – М.: Просвещение, 1988. – 128 с
4. Леонгард Э.И. и др. Я не хочу молчать! – М.: Просвещение, 1990. – 112 с.
5. Леонгард Э.И., Самсонова Е.Г. Развитие речи детей с нарушенным слухом в семье. – М.: Просвещение, 1991. – 319 с.

HOMILADORLIKNING DASTLABKI DAVRIDA BOLANING RIVOJLANISHI VA UNING MUHIM BOSQICHLARI

Babamuratov Bekzod Ergashevich

Termiz iqtisodiyot va Servis universiteti

Tibbiyot fakulteti dekani

babamuratov1985@mail.ru

Sayidqulova Sanobar Abdujafarzoda

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Davolash fakulteti talabasi

saitqulovasanobar5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada homiladorlikning dastlabki davrida bolaning rivojlanishi va uning muhim bosqichlari o'rganildi va tahlil qilindi. Maqolada homila rivojlanishining ketma-ket bosqichlari haqida ma'lumotlar berildi hamda maqola so'ngila barcha ma'lumotlar tahlil qilindi. Ushbu maqola oraqali homilaning rivojlanishi. Farzandingiz qanday homilador bo'lganini va chaqalog'ingiz ona qornida qanday rivojlanishini bilib oling.

Kalit so'zlar: zigota; blastotsist; embrion; homila;

Asosiy qism. Homiladorlik - bu homiladorlik va tug'ilish o'rtasidagi vaqt, chaqaloq ona qornida o'sadi va rivojlanadi. Kontsepsiya qachon sodir bo'lishini aniq bilish mumkin emasligi sababli, homiladorlik muddati onaning oxirgi hayz davrining birinchi kundan hozirgi kungacha o'lchanadi. U haftalarda o'lchanadi.

Bu shuni anglatadiki, homiladorlikning 1 va 2 haftalarida ayol hali homilador emas. Bu sizning tanangiz chaqaloqqa tayyorlanayotgan paytda. Oddiy homiladorlik 37 dan 42 haftagacha davom etadi.

1-2 hafta

- Homiladorlikning birinchi haftasi ayolning hayz davrining birinchi kundan boshlanadi. U hali homilador emas.
- Ikkinchi haftaning oxirida tuxumdondan tuxum chiqariladi. Bu sizning himoyalangan jinsiy aloqangiz bo'lsa, homilador bo'lish ehtimoli katta.

3-hafta

- Jinsiy aloqa paytida erkak ejakulyatsiya qilinganidan keyin sperma vaginaga kiradi. Eng kuchli spermatozoidlar bachadon bo'yni (bachadon yoki bachadonning ochilishi) orqali fallop naychalariga o'tadi.
- Fallop naychasida bitta sperma va onaning tuxum hujayrasi uchrashadi. Yagona sperma tuxumga kirganda, kontsepsiya sodir bo'ladi. Birlashgan sperma va tuxum zigota deb ataladi.
- Zigota chaqaloq bo'lish uchun zarur bo'lgan barcha genetik ma'lumotlarni (DNK) o'z ichiga oladi. DNKning yarmi onaning tuxumidan, yarmi esa otaning spermasidan kelib chiqadi.
- Zigota keyingi bir necha kunni fallop naychasi bo'ylab sayohat qiladi. Bu vaqt ichida u bo'linib, blastotsist deb ataladigan hujayralar to'pini hosil qiladi.
- Blastosist tashqi qobiqli hujayralarning ichki guruhidan iborat.
- Hujayralarning ichki guruhi embrionga aylanadi. Embriyon sizning chaqalog'ingizga aylanadi.
- Hujayralarning tashqi guruhi embrionni oziqlantiradigan va himoya qiladigan membranalar deb ataladigan tuzilmalarga aylanadi.

4-hafta

- Blastosist bachadonga yetib borgach, u o'zini bachadon devoriga ko'madi.
 - Onaning hayz davrining ushbu bosqichida bachadon shilliq qavati qon bilan qalin bo'lib, chaqaloqni qo'llab-quvvatlashga tayyor.
 - Blastosist bachadon devoriga mahkam yopishadi va onaning qonidan ozuqa oladi.
- Bu haqda videoni tomosha qiling: [Hujayra bo'linishi](#)

5-hafta

- 5-hafta - "embrion davri" ning boshlanishi. Aynan shu davrda chaqaloqning barcha asosiy tizimlari va tuzilmalari rivojlanadi.
- Embriyon hujayralari ko'payadi va muayyan funktsiyalarni bajarishga kirishadi. Bu farqlanish deb ataladi.
- Qon hujayralari, buyrak hujayralari va asab hujayralari rivojlanadi.
- Embriyon tez o'sadi va chaqaloqning tashqi xususiyatlari shakllana boshlaydi.
- Bolaning miyasi, orqa miya va yuragi rivojlana boshlaydi.
- Bolaning oshqozon-ichak trakti shakllana boshlaydi.
- Birinchi trimestrda aynan shu davrda chaqalog'ingiz tug'ma nuqsonlarga olib kelishi mumkin bo'lgan narsalardan zarar ko'rish xavfi yuqori. Bunga ba'zi dori-darmonlar, noqonuniy

giyohvand moddalarni iste'mol qilish, kuchli spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, qizilcha kabi infeksiyalar va boshqa omillar kiradi.

6-7 haftalar

- Qo'l va oyoq kurtaklari o'sishni boshlaydi.
- Farzandingizning miyasi 5 xil sohada shakllanadi. Ba'zi kranial nervlar ko'rinadi.
- Ko'zlar va quloqlar shakllana boshlaydi.
- Bolaning umurtqa pog'onasi va boshqa suyaklariga aylanadigan to'qimalar o'sadi.
- Sizing chaqalog'ingizning yuragi o'sishda davom etmoqda va endi muntazam ritmda uradi. Buni vaginal ultratovush yordamida ko'rish mumkin.
- Asosiy tomirlar orqali qon pompalanadi.

8-hafta

- Farzandingizning qo'llari va oyoqlari uzunroq o'sdi.
- Qo'llar va oyoqlar shakllana boshlaydi va kichik belkuraklarga o'xshaydi.
- Farzandingizning miyasi o'sishda davom etmoqda.
- O'pka shakllana boshlaydi.

9-hafta

- Nipellar va soch follikulalari hosil bo'ladi.
- Qo'llar o'sadi va tirsaklar rivojlanadi.
- Farzandingizning oyoq barmoqlari ko'rinadi.
- Farzandingizning barcha muhim organlari o'sishni boshladi.

10-hafta

- Kichkintoyingizning qovoqlari yanada rivojlangan va yopila boshlaydi.
- Tashqi quloqlar shakllana boshlaydi.
- Farzandingizning yuz xususiyatlari yanada aniqroq bo'ladi.
- Ichaklar aylanadi.
- Homiladorlikning 10-haftasi oxirida chaqalog'ingiz endi embrion emas. Endi bu homila, tug'ilishgacha bo'lgan rivojlanish bosqichidir.
- Xomilaning yurak ohanglari Doppler tekshiruvi orqali aniqlanishi mumkin

11-14 haftalar

- Kichkintoyingizning ko'z qovoqlari yopiladi va taxminan 28-haftagacha ochilmaydi.
- Farzandingizning yuzi yaxshi shakllangan.
- Oyoqlari uzun va ingichka.

- Barmoqlar va oyoq barmoqlarida tirnoqlar paydo bo'ladi.
- Jinsiy organlar paydo bo'ladi.
- Farzandingizning jigari qizil qon hujayralarini ishlab chiqaradi.
- Bosh juda katta -- chaqalog'ingizning yarmiga teng.
- Kichkintoyingiz endi musht yasashi mumkin.
- Sut tishlari uchun tish kurtaklari paydo bo'ladi.
15-18 haftalar
- Ushbu bosqichda chaqaloqning terisi deyarli shaffof bo'ladi.
- Bolaning boshida lanugo deb ataladigan nozik tuklar paydo bo'ladi.
- Mushak to'qimalari va suyaklar rivojlanishda davom etadi va suyaklar qattiqlashadi.
- Farzandingiz harakatlana boshlaydi va cho'zila boshlaydi.
- Jigar va oshqozon osti bezi sekretiya ishlab chiqaradi.
- Kichkintoyingiz endi emish harakatlarini qiladi.
19-21 haftalar
- Farzandingiz eshita oladi.
- Farzandingiz faolroq va harakatlanishda va suzishda davom etadi.
- Ona qorinning pastki qismida chayqalishni his qilishi mumkin. Bu chaqalog'ining birinchi harakatlarini ona sezishi mumkin bo'lganida tezlashish deyiladi.
- Bu vaqtning oxiriga kelib, chaqalog'ingiz yutib yuborishi mumkin.
22-hafta
- Lanugo sochlari chaqaloqning butun tanasini qoplaydi.
- Mekonium, chaqalog'ingizning birinchi ichak harakati ichak traktida hosil bo'ladi.
- Qoshlar va kirpiklar paydo bo'ladi.
- Mushaklar rivojlanishi bilan chaqalog'ingiz faolroq bo'ladi.
- Ona chaqaloqning harakatini his qilishi mumkin.
- Chaqaloqning yurak urishi stetoskop bilan eshitiladi.
- Tirnoqlar bolaning barmoqlarining oxirigacha o'sadi.
23-25 haftalar
- Suyak iligi qon hujayralarini hosil qila boshlaydi.
- Bolaning o'pkasining pastki nafas yo'llari rivojlanadi.
- Farzandingiz yog 'to'plashni boshlaydi.
26-hafta

- Qoshlar va kirpiklar yaxshi shakllangan.
- Farzandingiz ko'zining barcha qismlari rivojlangan.
- Farzandingiz baland tovushlarga javoban qo'rqib ketishi mumkin.
- Oyoq izlari va barmoq izlari shakllanmoqda.
- Bolaning o'pkasida havo qoplari hosil bo'ladi, ammo o'pka hali ham bachadondan tashqarida ishlashga tayyor emas.
27-30 haftalar
- Farzandingizning miyasi tez o'sadi.
- Asab tizimi tananing ba'zi funksiyalarini boshqarish uchun etarlicha rivojlangan.
- Bolaning ko'z qovoqlari ochilishi va yopilishi mumkin.
- Nafas olish tizimi yetilmagan bo'lsa-da, sirt faol moddalarni ishlab chiqaradi. Ushbu modda havo qoplarini havo bilan to'ldirishga yordam beradi.
31-34 haftalar
- Farzandingiz tez o'sadi va juda ko'p yog' oladi.
- Ritmik nafas olish sodir bo'ladi, lekin chaqaloqning o'pkasi to'liq etuk emas.
- Bolaning suyaklari to'liq rivojlangan, ammo hali ham yumshoq.
- Bolaning tanasi temir, kaltsiy va fosforni saqlashni boshlaydi.
35-37 haftalar
- Sizning chaqalog'ingiz taxminan 5 1/2 funt (2,5 kilogramm) vaznga ega.
- Kichkintoyingiz vazn ortishida davom etmoqda, lekin u uzoq davom etmaydi.
- Teri teri ostidagi yog 'hosil bo'lgani kabi ajinlar emas.
- Farzandingizning uyqu rejimi aniq.
- Kichkintoyingizning yuragi va qon tomirlari to'liq.
- Mushaklar va suyaklar to'liq rivojlangan.
38-40 hafta
- Lanugo qo'l va elkaning yuqori qismidan tashqari yo'qolgan.
- Tirnoqlar barmoq uchidan tashqariga cho'zilishi mumkin.
- Kichik ko'krak kurtaklari ikkala jinsda ham mavjud.
- Bosh sochlari endi qo'pol va qalinroq.
- Homiladorlikning 40-haftasida kontseptsiyadan beri 38 hafta o'tdi va chaqalog'ingiz hozir istalgan kun tug'ilishi mumkin.

Ma'lumotnomalar

1. Feigelman S, Finkelshteyn LH. Xomilaning o'sishi va rivojlanishini baholash. In: Kliegman RM, St. Geme JW, Blum NJ, Shah SS, Tasker RC, Wilson KM, tahrirlar. *Nelson Pediatriya darsligi*. 21-nashr. Filadelfiya, Pensilvaniya: Elsevier; 2020: 20-bob.
2. Ross MG, Desai M, Ervin MG. Xomilaning rivojlanishi, fiziologiyasi va uzoq muddatli salomatlikka ta'siri. In: Landon MB, Galan HL, Jauniaux ERM, va boshqalar, tahrirlar. *Gabbe akusherligi: normal va muammoli homiladorlik*. 8-nashr. Filadelfiya, Pensilvaniya: Elsevier; 2021: 2-bob.
3. <https://medlineplus.gov/ency/article/002398.htm>

GIYOHVANDLIK VA UNING SALBIY OQIBATLARI

Beknazarova Sevara Panji qizi

Termiz iqtisodiyot va servis uiversiteti
Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: J.G.Tursunpulotovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada asr vabosi – giyohvandlik va uning oqibatlari yoritib berilgan. Giyohvandlik nafaqat shaxsiy muammo, balki jamiyat uchun jiddiy xavfdir. Giyohvand moddalar iste'moli ruhiy va jismoniy salomatlikni buzadi, jinoyatchilikni oshiradi va iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Jamiyatda giyohvandlikka qarshi kurashish uchun kompleks yondashuvlar, shu jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash tizimlari va qattiq qonunlar zarur. Giyohvandlikka qarshi qarshi kurashish har bir insonning farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Giyohvandlik asr vabosi giyohvandlikning tarixi, sabablari va uning jamiyatdagi ta'sirlarini ko'rib chiqadi. Giyohvandlikka qarshi kurashishda davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligi zarur.

Kalit so'zlar: Giyohvandlik, narkomaniya, narkotik modda, kasallik, bangilik, ruhiy va jismoniy, sog'liqni saqlash, alkagolli ichimliklar.

Giyohvandlik (Narkomaniya) – (yunoncha narke – karaxtlik va maniya – telbalik, jahl, shodhurramlik) narkotik va narkotik ta'sirga ega bo'lgan moddalarni iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik. Giyohvandlik giyohvand moddalarni doimo qabul qilish natijasida vujudga keladi, chunki ushbu hastalik bilan og'ringan kishining jismoniy va ruhiy holati humorini bosadigan tegishli narkotik modda iste'mol qilishga bog'liq. Narkomaniya organizmda chuqur o'zgarishlarga sabab bo'ladi va uni tanazzulga olib keladi. Kasallik asta-sekin rivojlanib borib surunkali davom etadi.

Narkotik moddalar dastlab xursandlik, vaqtichog'lik, hotirjamlik hissini uyg'otib, kayf qildirishi sababli iste'mol qilinib bora-bora kasallikka aylanadi. Quyidagi ikki holda narkotik moddalarga o'rganib qolish mumkin. Birinchi holda kishi o'z hohishidan tashqari, e'tiborsizligi natijasida narkotik moddalar humor qiladigan bo'lib qoladi. Bunday bangilik ko'pincha vrach buyurgan narkotik moddalarni noto'g'ri iste'mol qilish natijasida kelib

chiqadi. Sal narsa ta'sir qilib, tashvish kuchayib ketadi, ba'zi kasallar og'riq, uyqusizlik va dardning boshqa tomonlaridan qutulish maqsadida oxirini o'ylamay, vrach ko'rsatmasini ham pisand qilmay, o'zboshimchalik bilan narkotik modda dozasini oshirib qabul qilishadi.

Bunday bemorlar odatda o'z ahvollarining yaxshilanishi dori tufayli bo'layotganini sezib, uni ichishni davom ettira boshlaydilar va ko'pincha ahvollarining og'irligidan nolib vrachni aldaydilar. Bu zaylda ish tutishning oqibati yomon bo'lib, narkotik moddalarga unchalik zarurat bo'lmasa ham uni qabul qilaveradi, dorining esa organizmga narkotik ta'siri yanada orta boradi va natijada narkotik moddaga moyillik kuchayib, u xumor qiladigan bo'lib qoladi.

Narkotik modda dozasini o'zboshimchalik bilan o'zgartirib boorish, uni tez-tez va uzoq muddat qabul qilish narkomaniyaga olib keladi. Ikkinchi hol ongli ravishda kayf qilish maqsadida narkotik moddalarga o'rganishdir. Narkomaniyaga odatda o'zini tiya bilmagan, ruhan zaif, irodasi kuchsiz, birovlariga taqlid qiladigan, humorini tarqatishdan boshqa narsani bilmaydigan, o'ta hudbin kishilargina beriladi. Bunday kishilar o'z mayillariga qarshi yurolmaydilar. Shuning uchun ularning kayf qilishga moyilliklari kuchli bo'ladi, bangilik avj olib ketadi. Bu kasallikka uchraganlarda hastalik juda og'ir kechib, odatda kutilmagan yomon oqibatlarga olib keladi. Bangilikka muhtalo bo'lganlar narkotik moddani qayta-qayta va ko'p miqdorda iste'mol qilgisi kelaveradi.

Keyinchalik esa narkotik moddalarni qabul qilmasdan turolmaydigan, o'sha bo'lmasa huddiki "Biror narsa yetishmayotganday" nolib qoladi. Bunday ahvoldan qutulish va o'zini yengil his qilish uchun yana narkotik moddaga ruju qiladi. Shu tariqa narkotik moddalarga moyillik-bangilik kelib chiqadi. Bora-bora organizmda narkotik moddalarga moyillik shu darajada kuchayib ketadiki, narkotik moddalar kuchini yo'qotgandek bo'lib qoladi, endi u avvalgidek humor tarqatish uchun doridan ko'proq miqdorda iste'mol qilgisi keladi.

Agar narkoman o'z vaqtida narkotik qabul qilmasa, organizmda kuchli ruhiy va jismoniy o'zgarishlar paydo bo'ladi. Bangi odam navbatdagi kayfni surish uchun har qanday pastkashliklarga boradi, sotqinlik, aldash, zo'rlik, o'g'irliklardan toymaydi. Organizmga narkotik modda kirmasa, humorlik boshlanadi: organism og'ir ahvolda qolib, chuqur ruhiy va jismoniy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Hastalik rivojlangan sari organizmda darmon qurishi ham kuchayib boradi, endi narkotik moddaning kuchi organism uchun og'irlik qiladi.

Narkotik moddalarning oldingi iste'mol qilib yurgan dozasi endi yomon ta'sir qila boshlaydi. Zaharlanish og'ir kichadi. Narkotik moddaning dozasi ozgina sohishi bilan bemor o'lib qolishi mumkin. Narkomaniyani davolash faqat psixiatriya kasalxonalarida vrachlarning qattiq nazorati ostida olib borilishi kerak.

Agar giyohvand shunday moddalarni tomir ichiga yuborsa, u 5-10 yil yashashi mumkin. Shu vaqtning 90% mobaynida u kasallikka chalinadi., davolanadi, yor do'stlaridan ayriladi, insoniylik qiyofasini yo'qotadi. Lekin har doim giyohvand moddalar uchun puli bo'lgan, ularno oz-ozdan qabul qilib yuradigan, o'z salomatligini halokat yoqasiga borguncha davolanib turadigan giyohvandlar uchungina ko'rsatilgan muddat to'g'ri keladi. Keyinga paytlarda paydo bo'lgan sintetik giyohvand preparatlarkrek, ekstazm va boshqa ko'pgina turlar yoki ilgaridan ma'lum bo'lgan LSD giyohvandning hayotiga u bilan tanishganidan 7-8 oy o'tgandayoq chek qo'yadi.

Giyohvand o'z organizmi bardosh bera oladigan ko'proq dozadagi giyohvand moddalarni qabul qilsa:

- Sifatsiz giyohvand moddalardan zaharlanishga;
- Kasalliklar qonning yiringli zaharlanishi, zotiljam, surunkali jigar yetishmovchiligiga;
- Jigar faqat alkagolli ichimliklar iste'mol qilish natijasidagina emas, organizmning har qanday zaharlanishi tufayli ham qattiq zaharlanishi mumkin.

Giyohvandlikning asosiy turlari:

1.Psixotrop moddalarga qaramlik: Odatda, bu tur giyohvandlikni keltirib chiqaruvchi kimyoviy moddalar bilan bog'liq bo'ladi. Ular miyaning neyrotansmitterlarini o'zgartirib, kuchli zavq hislarini keltirib chiqaradi.

2.Davolanish qiyinchiliklari: Giyohvandlik ko'pincha depressiya, xavotir yoki boshqa ruhiy kasalliklar bilan birga keladi. Bu holatlarni davolash qiyinlashadi.

Mexanizmlar:

Giyohvandlikning rivojlanishida bir qancha mexanizmlar mavjud.

1.Biologik mexanizm: Giyohvand moddalarning miyada dopamin va boshqa

neurotransmitterlar darajasini oshirishi, o'z navbatida, zavq va mukofot mexanizmlarini faollashtiradi. Bu giyohvand moddalarga qaramlikni kuchaytiradi.

2.Psixologik mexanizm: Giyohvandlar ko'pincha stress, qiyinchiliklar yoki boshqa ruhiy holatlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun giyohvand moddalarga murojat qiladilar. Bu esa giyohvandlikning davom etishiga sabab bo'ladi.

3.Ijtimoiy mexanizm: Giyohvandlik ko'pincha ijtimoiy muhit va do'stlar bilan bog'liq. Giyohvandlikka moyil bo'lgan guruhlarda o'sish, ularning ijtimoiy qabul qilinishi va normalarning ta'siri mavjud

Salbiy oqibatlar:

Giyohvandlikning salbiy oqibatlari juda keng qamrovli bo'lib, u jismoniy salomatlikdan tortib, ijtimoiy aloqalar va iqtisodiy holatgacha ta'sir qiladi. Giyohvand moddalardan foydalanish, sog'liq muammolariga, jinoiy faoliyatga va oilaviy muammolarga olib kelishi mumkin. Giyohvand moddani doimiy iste'mol qilishga duchor bo'lgan kashandalar jumladan, sgunday salbiy holatlarga giriftor bo'ladilar: uyqusizlik, kam harakatlilik, tananing qaqshab og'rishi, ishtahasizlik, titroq, serpeshoplik, et uvishishi, tomirlarning bo'rtib chiqishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish va shu kabi salbiy holatlar. Yana eng dahshatlijaridan biri giyohvand moddalar ba'zi bemorlarda OITS kasalligini tarqalishida muhim ahaamiyat kasb etadi. Giyohvandlikning salbiy oqibatlari nihoyatda ko'p.

Giyohvandlikka qarshi kurashishda davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligi zarur. Giyohvandlikni bartaraf etish uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy qo'llab quvvatlash tizimlarini kuchaytirish kerak. Giyohvandlik muammosi jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun tahdid hisoblanadi va uning oldini olish yo'llarini izlash har birimizning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aripova. A (2019). Madaniyatlararo muloqot globallashuvning zaruriy jarayoni sifatida.
2. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. F. G'. Nazirov. Toshkent – 2003.
3. Anatomiya. A. S.Gusev. Moskva - 1970.
4. Sog'lom va kasal bola parvarishi. A. N. Buraya. Toshkent – 2001.

5. Yuqumli kasalliklar. K. V. Bunin. Moskva – 1980.
6. Fuqaro muhofazasi kursi. V. F.Zubkov.Toshkent – 2004.

SHAXS KAMOLOTIGA TARBIYANING TA'SIRI.

Xolmurodova Gulnora Ilhomovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası

"Maktabgacha ta'lim yo'nalishi" 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola shaxs kamolotiga tarbiyaning ta'siri bilan bog'liq masalalarni tahlil qiladi. Shaxsning rivojlanishi va kamolotiga oila, ta'lim tizimi, jamiyat va madaniyat ta'sir o'tkazishi haqida so'z boradi. Tarbiyaning shaxsiyatni shakllantirishdagi o'rni, uning psixologik va ijtimoiy fazilatlar bilan bog'liqligi, hamda o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga qanchalik hissa qo'shishini o'rganadi. Maqolada tarbiya jarayonida ta'lim muassasalarining, oila va jamiyatning orni hamda shaxsning ichki motivatsiyasi ta'siri haqida ham fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, pedagogika, psixologiya, oila, ta'lim, fazilatlar, axloqiy, malaka va ko'nikma, yasash, applikatsiya, ko'rish-yasash, harakatli o'yinlar.*

Yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan ob'yektiv zaruratdir. Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik ta'sir ko'rsatishidir. Demak, aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisi bo'lib, u yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, ko'nikma va malakalar, me'yorlar, qoidalar va boshqalarda ro'y beradi. Bu holat kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlarni, keraqli shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma'lum maqsad asosidagi ta'sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir. Chunki

aql his-tuyg'ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo'lgan jarayonlar yig'indisidir. Aqliy rivojlanish fikrning kengligida voqealarni har xil bog'lanishlarda, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiyashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'quv, mehnat, samarali faoliyatlar: rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, applikasiya, ko'rish-yasash jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta'lim va tarbiya samarali ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi.

Pedagogika va psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda, bir tomondan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomondan, bola organizmning umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha toliqtirish bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonuniyatlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Keyingi yillarda olib borilgan psixologikpedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi.

Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalar mazmunini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolatdir. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'ladilar, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar. Faqat yaxshi tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi, shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilarning asosiy vazifasibolaga muayyan maqsadni ko'zlab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoit yaratishdir.

Bola har doim buyumlar hamda hodisalar orasida bo'ladi. Bola doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko'radi, hidlaydi, tortib ko'radi, nimagadir quloq soladi. Shu tariqa dunyoni bilib oladi. Tevarak atrofdagi buyumlar, tabiat bolaning sezgi organlari-analizatorlariga ta'sir etadi va sezgi hosil qiladi. Sezgi bolalarga buyumlarning ayrim xossalarini: sovuq-issiq, g'adir-budur, silliq-yaltiroq, xushbo'y ni bilim olishga

